

# **TUXUMLARNI QABUL QILISH, TANLASH, TOIFALARGA AJRATISH VA INKUBATSIYALASHGA TAYYORLASH**

**Mamatov X.A., Bazarbayeva G., Abdiraxmanova B,  
Abdireymova V, Apizova D**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Nukus filiali

**Annotatsiya.** Maqlada, parrandachilikda veterinariya-sanitariya qoidalari, tuxum sifatini baholashda vazni, shakli tuxumning tashqi ko‘rinishini ko‘zdan kechirishda uning shakli va po‘chog‘ining holatiga ahamiyat berilgan. “Universal-55” va Xitoy “HB-22528” inkubatoriyalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Tuxum, inkubatsiya, inkubator, avaskop, ventelyatsiya, murtak.

**Kirish.** Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga ilg‘or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarini joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish, raqobatbardosh parranda mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta’minlashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 noyabrdagi PQ-4015-sonli “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida keltirilganidek mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatlari arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta’minlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ross-308 krossi boshqa krossardan to‘sh qismining kattaligi, tanasining mustahkamligi, oq parlanishga egaligi va qizil yuzi bilan ajralib turadi. Ross-308 krossi juda tez vazn olishi bilan ham boshqa krosslardan ajralib turadi. So‘yilishga ushbu krosslarning jo‘jalari bir oyda tayyor bo‘ladi bu juda yaxshi ko‘rsatkich va iqtisod tomonlama ham foydali kross sanaladi. ularning vazni o‘rtacha kamida 1.5 kg bo‘ladi. Maksimal saqlanganda 2.5 oy saqlansa iqtisodiy tarafdan ham yaxshi ushbu muddatdan oshib ketadigan bo‘lsa foydadan zarari ko‘p bo‘ladi. 2.5 oylik davrida ushbu krosslarning vazni 5.5 kg ni tashkil etadi. Qismlarga bo‘linganda 70.66-74.1% sof go‘sht olsa bo‘ladi, eng tarozi bosadigan qismi ko‘krak qismiga to‘g‘ri keladi. Ko‘krak qismi o‘rtacha 20.15-22.57%. Oyoq qismi 12.19-13.4%, boldir qismi 10% ni tashkiul qiladi. “Agrokompleks” fermer xo‘jaligida Ross-308 krossini ota onalik galasi xo‘jalikni o‘zida yetishtiriladi tuxumlarni saqlashda juda ehtiyyotkorlik qilinishi kerak yani tashishda hech qanday siniq va lat yejish bo‘lmasligi kerak. Tuxumning ustiga albatta Ross-308 deb yozilishi kerak .

Ushbu kross tuxumlarini inkubasiyaga 5 kun ichida qo‘yish kerak 5 kundan o‘tib ketsa chiqish % amroq bo‘ladi saqlanadigan xona harorati 25оС ni tashkil qilishi kerak. Ushbu Ross-308 krossi boshqa inkubasiyalanadigan krosslardan farqi yo‘q yani inkubatorning ichidagi harorat 7 kungacha 38оС ni tashkil qilishi lozim

yeti kundan keyin 37.6-37.9оС bo‘lishi mumkin. 18 kunligida oldin 36.5оС, jo‘ja ochishga yaqin 36.2оС qilsa bo‘ladi.

Jo‘jalar ozuqaga birinchi yetishishganda, o‘zida ochlikni his qiladi, natijada yaxshilab ozqlanadi va jig‘ildonni to‘ldiradi. Jo‘jalar suv va ozuqani topganligigaamin bo‘lish uchun 8 va 24 soat o‘tgandan keyin tekshiriladi. Buning uchun parrandaxonani 3-4 joyidan 30-40 bosh jo‘jalar ushlanadi. Keyin xar bir jo‘jani jig‘ildonini barmoq bilan asta paypaslab tekshiriladi. Agar jo‘ja suv va ozuqani topgan bo‘lsa, jig‘ildoni to‘la, yumshoq va aylana shaklida bo‘ladi. Agar jig‘ildoni to‘la bo‘lsa, lekin paypaslab ko‘rilganda ozuqa shakli sezilsa, unda jo‘ja yetarli miqdorda suv ichmagan bo‘ladi. Jo‘ja jig‘ildonini to‘ldirish meyyori 8 soatdan keyin 80 % ni, 24 soatdan keyin 95-100 % ni tashkil etishi kerak.

Parranda galasi sog‘lig‘i va ishtahasi rivojlanishi uchun asosiy zarur elementlardan eng maqbuli havo harorati va nisbiy namlikni doimo vat z-tez nazorat qilib turish kerak birinchi 5 kun kamida bir kunda 2 marta va undan keyin xar kuni. Havo harorati va nisbiy namlikni o‘lhash va mikroiklimni avtomatik tarzda nazorat qilish tizimi o‘lchangichlari jo‘jalar balandligida o‘rnataladi. Bundan tashqari elektron nazorat ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri ishlatilayotganligini nazorat qilib turish uchun yana oddiy termometrlar xam o‘rnataladi.

Inkubatorda nisbiy namlik inkubasiya jarayonini oxiriga kelib yetarli darajada yuqori (80%) bo‘ladi. Parrandaxonada umumiy isitish tizimi mavjudligi va ayniqsa nippelli suvdonlardan foyalanishda nisbiy namlik 25% dan past bo‘ladi. Standart uskunalari mavjud parrandonalarda (nuqtali bruderlarning qo‘yishi natijasida qo‘sishma namlik ishlab chiqarish va ochiq suv sathiga ega bo‘lgan qo‘ng‘iroqli suvdonlar) havo nisbiy namligi yuqoriroq(50%) bo‘ladi. Stress holatini kamaytirish uchun jo‘jalarni inkubatordan ko‘chirishda parrandaxona nisbiy namligini (dastlabki uch kun ichida) 60-70 % da ushslash tavsiya etiladi.

Xonada nisbiy namlikni xar kuni nazorat qilish lozim. Agar nisbiy namlik 50% dantushib ketsa, atrof-muhit havosi quruq va chang bo‘ladi. Jo‘jalar organizmi namlikni yo‘qotishni boshlaydi va respirator kasalliklari kelib chiqish xavfi tug‘iladi. Bu ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga darxol ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatda tezlik bilan havo nisbiy namligini ko‘tarish tavsiya etiladi.

Barcha parrandalar respirator organlari va terisi orqali organizmdagi namlikni bug‘latishi sababli ma’lum qismini yo‘qotadi. Yuqori nisbiy namlikda bug‘lanish orqali issiqlikni sarflanishi kam bo‘ladi. Parranda his qilayotgan harorat quruq termometrdagi haroratni sezish kuchayadi, past nisbiy namlida haroratni sezish kamayadi.

Agar nisbiy namlik ruxsat etilgan me’yordan yuqori yoki past bo‘lsa parrandaxona harorati o‘zgartiriladi. Masalan agar nisbiy namlik 60% past bo‘lsa, unda quruq termometr ko‘rsatkichi ko‘tariladi. Jo‘jalarni o‘stirilishining nazorat o‘rnatalish kerak. Chunki jo‘jalar tomonidan haroratda sezishi eng maqbul ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar parranda xulqi jo‘jalarga juda sovuqyoki juda issiqligini ko‘rsatib tursa, unda parrandaxona harorati kerakli tomonga o‘zgartiriladi.

Parrandalarni tuxumini inkubasiyalash va ularni jo‘ja ochirish muhim zootexnik tadbir bo‘lib hisoblanadi. Binobarin bu ish to‘g‘ri olib borilishi jo‘jalarni yil davomida bir tekis yosh parrandalariga bo‘lgan talabini qondiradi va uning

negizida urchitilishini va mahsulot ishlab chiqarishini jadallashtiradi. Parrandalarni tuxumini sun'iy ravishda inkubasiyalishini bugungi kundagi zamonaviy inkubasiya sexlarida amalga oshiriladi.

### 1-jadval

#### Tuxumlarni inkubatsiyalash sexida texnologik jarayon

Inkubatsiyaga yaroqli tuxumlarni qabul qilish.
Tuxumlarni tanlash va inkubatsiyalash latogiga joylashtirish.
Maxsus kamerada tuxumlarni gaz bilan zararsizlantirish.
Inkubator xonasiga latok-tuxumi bilan joylashtirish va inkubatsiyalash.
Tuxumlarni inkubatsiyalashning 6 kunida nazorat o'tkazish.
Tuxumlarni inkubatsiyalashda 11 kunida nazorat o'tkazish.
Tuxumlarni inkubatsiyalashni 19 kunida nazorat o'tkazish va jo'ja chiqarish xonasiga o'tkazish.
Tuxumlardan chiqqan jo'jalarni olish, tanlash va o'stirishga jo'nattish.
Jixozlarni tozalash va zararsizlantirish.

**Xulosa.** Bu sexlarda tuxumlarni qabul qilish, toifalarga ajratish, saqlash, dezinfeksiya qilish, tuxumlarni “Universal 45-55-90” markali inkubatorlarda inkubatsiyalash, jo'jalarni ochirish, foydalanilgan va ishlatilgan barcha jihoz va anjomlarni yuvish kabi ishlar bajariladi, tuxumlar tovuqlar galasidan olinadi, chunki ular xo'rozlar bilan birga boqiladi va yetishtirib berayotgan tuxumlari otalanib jo'ja ochish xususiyatiga ega bo'lib hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi “Parrandasanoat” uyishmasi “Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni parvarishlash” bo'yicha tavsiyanoma Toshkent 2018 y.
2. Джасимов Ф., Шойимардонов Н, Махмудов М, Бердиев И “Влияние предубийной голодной выдержки на показатели мясной продуктивности птицы”. “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали” №4. 2012.
3. Rahmonov L.K. Parrandalarni asrash va oziqlantirish texnologiyasining o'ziga xosliklari. “Zooveterinariya”, 2012 y №2, 32-34 b
4. Hamraqulov R va boshqalar. “Broyler jo'jalar mikro iqlim sharoiti” Agroilm-O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2013 yil № 3

## BALIQCHILIK XO'JALIKLARIDA BALIQLARNI OZIQLANTIRISH

**Mamatov X.A., Allamuratova B., Ubaydullaeva G.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Nukus filiali

**Annatatsiya.** Maqolada baliqchilik xo'jaliklarida baliqlarni oziqlantirish, o'stirish, yashash sharoiti, ko'payishi, yosh baliq chavoqlarini o'stirish va zamonaviy intensiv texnologiyalarni qo'llash.

**Kalit so'zlar.** Hovuz, urchitish, ozuqa, o'g'it, baliq, chavoq.